



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-dekabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 586,1 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 119,1 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr 2024 y., mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 586,1 (+19,1 %)**

(2023- y.: **1 331,3**)



Saldo

2024- y.: **632,9** (2023- y.: **-28,3**)



Eksport

2024- y.: **1 109,5 (+70,3 %)**

(2023- y.: **651,5**)




Import

2024- y.: **476,6 (-29,9 %)**

(2023- y.: **679,8**)

TSA'dagi ulushi

30,0 %



70,0 %

TSAda eksport hajmi 1 109,5 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 70,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 476,6 mln. AQSH dollariga (70,1 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 632,9 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.













NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Fransiya, Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.










Navoiy viloyati jahonning 78 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (49,2%), XXRda (10,9%), Rossiyada (10,5%), Qozog'istonda (4,5%) va Turkiyada (4,1%) qayd etilgan.











<p>Fransiya</p> <p>TSA – 779,6</p> <p>Eksport: 776,4 Import: 3,2</p> <p> 49,2 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 173,5</p> <p>Eksport: 7,4 Import: 166,1</p> <p> 10,9 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 167,1</p> <p>Eksport: 83,3 Import: 83,8</p> <p> 10,5 %</p>	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 71,6</p> <p>Eksport: 27,1 Import: 44,5</p> <p> 4,5 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 65,6</p> <p>Eksport: 33,4 Import: 32,2</p> <p> 4,1 %</p>
<p>Hindiston</p> <p>TSA – 52,0</p> <p>Eksport: 46,7 Import: 5,3</p> <p> 3,3 %</p>	<p>Daniya</p> <p>TSA – 31,0</p> <p>Eksport: 29,7 Import: 1,3</p> <p> 2,0 %</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 27,0</p> <p>Eksport: 11,6 Import: 15,4</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 23,7</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 23,4</p> <p> 1,5 %</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 23,2</p> <p>Eksport: 23,1 Import: 0,1</p> <p> 1,5 %</p>



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	63,9	387,2	779,6
 <i>Eksport</i>	60,5	382,5	776,4
<i>Import</i>	3,4	4,7	3,2
XXR	240,5	195,1	173,5
 <i>Eksport</i>	68,2	14,4	7,4
<i>Import</i>	172,3	180,7	166,1
Rossiya	281,8	226,1	167,1
 <i>Eksport</i>	87,6	67,2	83,3
<i>Import</i>	194,2	158,9	83,8
Qozog'iston	98,2	74,9	71,6
 <i>Eksport</i>	23,2	18,6	27,1
<i>Import</i>	75,0	56,3	44,5
Turkiya	68,9	60,2	65,6
 <i>Eksport</i>	38,9	29,4	33,4
<i>Import</i>	30,0	30,8	32,2
Hindiston	17,7	51,7	52,0
 <i>Eksport</i>	-	40,3	46,7
<i>Import</i>	17,7	11,4	5,3
Daniya	0,1	16,5	31,0
 <i>Eksport</i>	-	15,5	29,7
<i>Import</i>	0,1	1,0	1,3
AQSH	2,8	4,1	27,0
 <i>Eksport</i>	0,4	0,7	11,6
<i>Import</i>	2,4	3,4	15,4
Germaniya	16,7	24,4	23,7
 <i>Eksport</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	16,7	24,4	23,4
Afg'oniston	11,6	23,3	23,2
 <i>Eksport</i>	11,6	23,3	23,1
<i>Import</i>	-	-	0,1

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Yaponiya	31,1	42,9	22,7
 <i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	31,1	42,8	22,7
Qirg'iz Respublikasi	31,5	21,8	16,3
 <i>Eksport</i>	28,5	18,9	14,7
<i>Import</i>	3,0	2,9	1,6
Eron	11,7	10,2	14,2
 <i>Eksport</i>	3,7	4,4	6,4
<i>Import</i>	8,0	5,8	7,8
Litva	19,6	24,8	13,0
 <i>Eksport</i>	12,9	9,2	7,9
<i>Import</i>	6,7	15,6	5,1
Buyuk Britaniya	0,3	10,0	10,9
 <i>Eksport</i>	-	0,3	0,6
<i>Import</i>	0,3	9,7	10,3
Turkmaniston	28,3	6,0	10,8
 <i>Eksport</i>	27,0	4,5	8,1
<i>Import</i>	1,3	1,5	2,7
Koreya Respublikasi	23,2	22,1	8,8
 <i>Eksport</i>	-	0,2	-
<i>Import</i>	23,2	21,9	8,8
Tojikiston	8,9	6,7	8,4
 <i>Eksport</i>	8,8	6,6	7,3
<i>Import</i>	0,1	0,1	1,1
Italiya	2,1	5,8	6,1
 <i>Eksport</i>	0,1	4,4	-
<i>Import</i>	2,0	1,4	6,1
Chexiya	1,9	5,8	4,6
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,9	5,8	4,6




NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI * (2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 65,1 % ulush bilan 1 032 997,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,2 % ulush bilan 3 621,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 18,0 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 83,4 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 82,0 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 286,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 150,1 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 135,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

Rossiya – 10,5



Qozog'iston – 4,5



Qirg'iz Respublikasi – 1,0



Turkmaniston – 0,7



Tojikiston – 0,5



Ukraina – 0,2



Belarus – 0,2




Armaniston – 0,1




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (10,5 %), Qozog'iston (4,5 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 258,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 127,9 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 130,3 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-dekabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 1 109,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 70,3% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi % da)



3,3%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0%

2. Ichimliklar va tamaki



1,8%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



3,2%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,1%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



76,3%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



12,9%

7. Sanoat tovarlari



0,2%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



2,0%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0%

10. Boshqa tovarlar



0,2%

11. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	651,5	1 109,5	112,1	170,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	33,4	36,4	162,9	108,9	5,1	3,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	30,9	20,2	62,6	65,5	4,7	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	23,3	35,2	2,7 b.	150,8	3,6	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	1,8	3,3 b.	154,3	0,2	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	436,6	846,8	120,2	194,0	67,0	76,3
Sanoat tovarlari	100,9	142,7	88,4	141,5	15,5	12,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	5,2	2,1	21,4 b.	41,0	0,8	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	14,9	22,0	70,9	147,5	2,3	2,0
Xizmatlar	5,2	2,3	155,4	44,0	0,8	0,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (76,3 %), sanoat tovarlari (12,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,3 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-dekabr)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36 385,0	108,9
Sabzavotlar va mevalar	15 872,4	139,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	18 124,0	82,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2 147,5	-
Tirik hayvonlar	25,1	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	216,0	4,4 b.
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20 192,3	65,5
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 839,4	156,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	7 849,5	170,7
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	331,4	19,1 b.
Metall rudalari va metall parchalari	7 079,3	30,8
Tabiiy kauchuk	92,7	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	35 200,7	150,8
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	35 200,7	150,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 757,7	154,3
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 757,7	154,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	846 788,1	194,0
Noorganik kimyo moddalari	822 057,6	193,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	143,3	3,1 b.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	10 975,8	135,0
O'g'itlar	11 978,1	38,5 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	154,6	2,0 b.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	28,3	0,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 450,4	2,1 b.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	142 715,2	141,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	79 359,8	117,9
Rangli metallar	29 330,1	199,7
Cho'yan va po'lat	247,9	175,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	32 856,9	180,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	779,7	2,0 b.
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	5,2	18,9
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	135,6	2 152,8 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2 136,1	41,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	936,6	2,2 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	181,9	5,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	859,9	90,9
Avtomobillar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham)	150,4	211,8 b.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	6,5	3,3
Boshqa transport uskunalar	0,8	-
Turli xil tayyor buyumlar	22 027,8	147,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	19 859,4	143,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 421,6	151,3
Poyabzal	472,7	79,2 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	269,7	167,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,3	2,1
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlagichlar	4,1	3,0 b.
Xizmatlar	2 266,8	44,0
Moliyaviy xizmatlar	695,9	107,5
Transport xizmatlari	549,5	22,0
Safarlar	158,5	18,1
Boshqa xizmatlar	862,9	82,4

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 150,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 13,5 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln.
AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Daniya, Qozog'iston va Afg'oniston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	382 523,3	776 380,3	2,0 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	67 161,8	83 331,9	124,1	2
Hindiston	40 256,1	46 648,3	115,9	3
Turkiya	29 380,4	33 414,1	113,7	4
Daniya	15 535,7	29 654,5	190,9	5
Qozog'iston	18 565,4	27 065,3	145,8	6
Afg'oniston	23 303,6	23 078,5	99,0	7
Qirg'iziston	18 876,3	14 663,3	77,7	8
AQSH	753,0	11 622,6	15,4 b.	9
Turkmaniston	4 501,4	8 149,8	181,1	10
Litva	9 244,8	7 920,5	85,7	11
Xitoy	14 350,4	7 370,2	51,4	12
Tojikiston	6 547,6	7 267,5	111,0	13
Eron Islom Respublikasi	4 442,4	6 444,2	145,1	14
Ukraina	505,4	3 377,8	6,7 b.	15
Pokiston	1 599,0	3 340,4	2,1 b.	16
Braziliya	0,0	3 016,9	0,0	17
Belarus	3 539,2	2 870,6	81,1	18
Misr	116,4	2 610,3	22,4 b.	19
Ozarbajon	1 463,6	1 925,3	131,5	20

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI * (2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 78,7 % bilan 872 997,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,01 % bilan 136,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida 15 320,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 89,4 % ni tashkil etdi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (48,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (26,8 %) hamda Afg'oniston (10,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 12 601,6 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 128,4 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Pomidor</p> <p>790,4 ming AQSH dollari</p> <p>931,2 tonna</p> <p> 78,4 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>480,7 ming AQSH dollari</p> <p>2 681,9 tonna</p> <p> 64,2 % ↓</p>	<p>Uzum</p> <p>2 939,2 ming AQSH dollari</p> <p>2 684,7 tonna</p> <p> 120,2 % ↑</p>	<p>Yong'oklar</p> <p>1 567,5 ming AQSH dollari</p> <p>1 307,2 tonna</p> <p> 64,8 % ↓</p>
<p>Karam</p> <p>149,7 ming AQSH dollari</p> <p>405,4 tonna</p> <p> 51,1 % ↓</p>	<p>Bodring</p> <p>58,0 ming AQSH dollari</p> <p>76,2 tonna</p> <p> 54,4 % ↓</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>39,6 ming AQSH dollari</p> <p>27,4 tonna</p> <p> 149,2 % ↑</p>	<p>Loviya</p> <p>2 441,9 ming AQSH dollari</p> <p>521,5 tonna</p> <p> 193,7 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	10 964,2	6 144,1	48,8
 Xitoy Xalq Respublikasi	2 556,8	3 371,9	26,8
 Afg'oniston	261,6	1 314,6	10,4
 Pokiston	149,9	987,6	7,8
 Rossiya Federatsiyasi	335,8	258,7	2,1
 Eron Turkmaniston	132,0	170,5	1,4
 Litva	274,5	78,9	0,6
 Germaniya	136,9	65,6	0,5
 Latviya	231,5	59,0	0,5
 Boshqa davlatlar	277,6	150,7	1,1

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 48,8 % ini), bu esa Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmiga nisbatan 82,1 foizga ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha 31 306,2 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 2,8 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,2 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (62,9 %), sintetik, jut tolalar (13,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 14 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)

100 %

31 306,2 (2023 y.: 25 401,5)

Jami

62,9 %

19 706,3 (13 645,0)

Kiyim-kechak Ip kalava

13,8 %

4 312,9 (2 453,9)

Sintetik, jut tolalar

7,0 %

2 179,0 (4 552,4)

Ipak mahsulotlari

4,4 %

1 368,7 (1 684,4)

Adyol, parda, gilam, yotoq choyshablari

11,9 %

3 739,3 (3 065,8)


Boshqa to'qimachilik mahsulotlari

Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 2 266,8 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,2 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 44,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (30,7 %), transport xizmatlari (24,2 %), safarlar turizm xizmatlari (7,0 %) va boshqa xizmatlar (38,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 476,6 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 70,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (46,5 %), sanoat tovarlari (20,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (16,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



5,4 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,02 %

2. Ichimliklar va tamaki



2,0 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



0,3 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,5 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



16,2 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



20,6 %

7. Sanoat tovarlari



46,5 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,8 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



4,7 %

11. Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi 454,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 22,5 mln. AQSH dollariga etdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	679,8	476,6	104,7	70,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	33,5	25,9	188,6	77,4	4,9	5,4
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	-	-	0,02
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,9	9,4	102,1	67,4	2,1	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	1,4	28,0	53,8	0,4	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,7	2,2	3,1 b.	39,4	0,8	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	88,7	77,3	89,9	87,2	13,1	16,2
Sanoat tovarlari	195,0	98,1	97,6	50,3	28,7	20,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	293,0	221,6	120,7	75,6	43,1	46,5
Turli xil tayyor buyumlar	25,4	18,1	51,2	71,1	3,7	3,8
Xizmatlar	21,9	22,5	139,3	102,8	3,2	4,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	25 915,4	77,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	19 460,0	70,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	659,3	104,0
Sabzavotlar va mevalar	3 748,4	170,7
Hayvonlar uchun oзуqalar (oktabrdalanmagan donlardan tashqari)	691,7	136,3
Tirik hayvonlar	927,2	46,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	282,1	43,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	146,7	-
Ichimliklar va tamaki	76,9	-
Ichimliklar	76,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9 389,7	67,4
Probka va yog'och-taxtalar	2 148,5	98,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1 129,0	84,5
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	693,0	2,1 b.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5 025,5	51,1
Tabiiy kauchuk	31,8	53,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	194,1	44,3 b.
Metall rudalari va metall parchalari	167,8	97,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 440,2	53,8
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	785,4	29,9
Ko'mir, koks va briketlar	654,8	13,3 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 244,9	39,4
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 189,0	38,6
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	55,9	2,1 b.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	77 272,3	87,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 403,6	56,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	28 575,8	88,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	23 574,3	98,4
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	486,2	16,6
Noorganik kimyo moddalari	11 357,3	96,7
Organik kimyo moddalari	3 245,2	66,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6 651,0	87,8
O'g'itlar	4,2	3,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	974,7	114,9


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	98 081,1	50,3
Cho'yan va po'lat	8 700,0	84,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	12 551,0	140,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	8 400,9	2,5 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 595,0	4,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	344,8	60,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 898,4	82,8
Rangli metallar	62 485,9	68,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	104,9	21,1
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	221 643,9	75,6
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	13 724,1	24,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	96 068,4	86,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	31 135,1	72,5
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	28 949,2	109,9
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	34 043,8	172,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	9 760,4	166,6
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	2 294,6	97,0
Metallarni qayta ishlash mashinalari	5 661,0	92,1
Boshqa transport uskunolari	7,3	-
Turli xil tayyor buyumlar	18 055,2	71,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	10 907,3	100,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	5 197,8	81,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 613,8	21,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	196,6	57,7
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	73,9	2,3 b.
Poyabzal	30,8	12,2 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	30,8	4,1 b.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	4,2	52,3
Xizmatlar	22 491,6	102,8
Transport xizmatlari	12 871,1	103,1
Safarlar (turizm xizmatlari)	50,0	106,8
Boshqa xizmatlar	9 570,5	102,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-dekabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 28,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 61,5 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati 62 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Yaponiya va AQSH) jami importning 81,4 % ini tashkil qiladi, bu 388,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy	180 716,6	166 145,8	91,9	1
Rossiya Federatsiyasi	158 897,0	83 843,7	52,8	2
Qozog'iston	56 341,6	44 511,0	79,0	3
Turkiya	30 782,0	32 169,4	104,5	4
Germaniya	24 399,0	23 383,5	95,8	5
Yaponiya	42 814,4	22 699,3	53,0	6
AQSH	3 384,0	15 431,7	4,6 b.	7
Buyuk Britaniya	9 729,9	10 339,0	106,3	8
Koreya Respublikasi	21 890,1	8 839,3	40,4	9
Eron	5 833,1	7 808,9	133,9	10
Italiya	1 378,5	6 057,4	4,4 b.	11
Hindiston	11 375,0	5 312,5	46,7	12
Litva	15 564,4	5 121,5	32,9	13
Chexiya	5 808,6	4 553,5	78,4	14
Shveysariya	2 047,8	4 044,2	197,5	15
Fransiya	4 719,3	3 212,5	68,1	16
Belgiya	2 338,8	2 939,4	125,7	17
Turkmaniston	1 488,0	2 671,1	179,5	18
Polsha	4 693,5	2 219,3	47,3	19
Xitoy, Makao MMR	0,0	2 162,4	0,0	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI (2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 52,9 % bilan 252 277,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,2 % bilan 848,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 22 491,6 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 4,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (57,2 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,2 %) va boshqa xizmatlar (42,6 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 98 081,1 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,3 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 20,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-dekabr)

51 379,6 ming AQSH
doll. *Ulushi – 52,4 %*



Rossiya

15 883,0 ming AQSH
doll. *Ulushi – 16,2 %*



Qozog'iston

12 716,7 ming AQSH
doll. *Ulushi – 13,0 %*



XXR

4 338,9 ming AQSH
doll. *Ulushi – 4,4 %*



Turkiya

2 371,0 ming AQSH
doll. *Ulushi – 2,4 %*



Turkmaniston



2024- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 51 379,6 ming AQSH dollari (52,4 %), Qozog'iston 15 883,0 ming AQSH dollari (16,2 %) va Xitoy Xalq Respublikasi 12 716,7 ming AQSH dollari (13,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.